

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N.Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
"Qutadg'u biling"dagi Allohnning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida	411
Х.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalaldinova	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyerberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning "Enashamol" qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva,N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixolingvistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



УО'К: 821.161.1-1(574.1)

XX ASR SHE'RIYATI VA G'AFUR G'ULOM**20. YÜZYIL ŞİİRİ VE GAFUR GULAM****20TH CENTURY POETRY AND GHAFUR GHULAM****ПОЭЗИЯ XX ВЕКА И ГАФУР ГУЛАМ****Erhan Giray¹** ¹Artvin Çoruh Üniversitesi (Turkiye)

Fen-Edebiyat Fakültesi Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü Doçenti

Sabirdinov Akbar Gofurovich² ²Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori**Oripova Gulnoza Murodilovna³** ³Farg'ona davlat universiteti dotsenti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada G'afur G'ulomning XX asr o'zbek she'riyatining rivojiga qo'shgan hissasi shoirning adabiy an'analarga vorisligi, poetik obrazlar yangilanishida badiiy mahorati, lirik janrlar taraqqiyotida uslubiy o'ziga xosligi, o'zbek folkloridan va jahon adabiyoti yutuqlaridan ijodiy ta'sirlanishi orqali tahlil qilingan. Qiyoysi-tarixiy, psixologik, struktural-poetik, tavsiflash metodlari orqali G'afur G'ulom she'rlerining vazn, qofiya, band qurilishi bilan bog'liq kompozitsion xususiyatlari shoir poetik g'oyalarni hamda asarning badiiy-estetik xususiyatlarini ifodalashda muhim funksiya bajarishi dalillangan. XX asr she'riyatida yetakchi bo'lgan barmoq she'r tizimining imkoniyatlaridan, aruz she'r tizimiga xos bo'lgan vazn jilolaridan mohirona foydalaniishi, o'zbek lirkasining mazmuniy yangilanishlariga xos bo'lgan personajli lirika, voqeaband lirika kabi she'r ko'rinishlariga murojaat qilganligi asoslab berilgan.

Аннотация

В статье анализируется вклад Гафура Гулама в развитие узбекской поэзии XX века через преемственность поэта литературным традициям, художественное мастерство в обновлении поэтических образов, стилистическое своеобразие в развитии лирических жанров, творческое влияние узбекского фольклора и достижений мировой литературы. С помощью сравнительно-исторических, психологических, структурно-поэтических, описательных методов было доказано, что композиционные особенности стихов Гафура Гулама, связанные с весом, рифмой, построением абзаца, выполняют важную функцию в выражении поэтических идей поэта, а также художественно-эстетических особенностей произведения. В поэзии XX века были обоснованы ведущие возможности пальчиковой поэтической системы, умелое использование весовых оттенков, свойственных арузской поэтической системе, обращение к таким видам поэзии, как героическая лирика, событийная лирика, характерные для содержательных обновлений узбекской лирики.

Abstract

The article analyzes Ghafur Ghulam's contribution to the development of Uzbek poetry of the 20th century through the poet's succession to literary traditions, artistic skill in the renewal of poetic images, methodological originality in the development of lyrical genres, creative influence from Uzbek folklore and the achievements of world literature. Through comparative-historical, psychological, structural-poetic, descriptive methods, it was proved that the compositional features of Ghafur Ghulam poems associated with weight, rhyme, band construction perform an important function in expressing the poetic ideas of the poet and the artistic-aesthetic characteristics of the work. It is based on the possibilities of the finger poem system, a leader in 20th-century poetry, the skillful use of the weight gills characteristic of the aruz poetry system, the characteristic lyricism characteristic of the content updates of Uzbek lyricism, the reference to poetic manifestations such as eventful lyricism.

Kalit so'zlar: adabiy an'ana, poetik obraz, baiiy mahorat, badiiy g'oya, mavzu, badiiy-estetik xususiyat, shakl va mazmun yangilanishlari.

Ключевые слова: литературная традиция, поэтический образ, художественное мастерство, художественная идея, тема, художественно-эстетическая характеристика, форма и содержание обновления.

Key words: literary tradition, poetic image, baiyan skill, artistic idea, theme, artistic-aesthetic feature, form and content updates.

KIRISH

Badiiy adabiyot, jumladan, she'riyat ijtimoiy ong shakli sifatida o'z davrining badiiy, g'oyaviy-estetik qiyofasini namoyon etadi. Har bir davrda yaratilgan lirk asarlarning g'oyaviy-estetik va badiiy hodisa sifatidagi o'rni, an'ana va o'ziga xoslik, fikr va tuyg'u birligi kabi jihatlar tadqiqotlarning yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Shunday ekan, XX asrning 20-yillar adabiy avlodiga mansub bo'lgan G'afur G'ulom she'riyati haqida fikr yuritish shoirning bugungi lirikamiz taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyotshunoslida G'afur G'ulomning badiiy mahorati qirralari akademiklar N.Karimov, B.Nazarov, S.Mamajonov, A.Qayumov, professorlar H.Yoqubov, N.Shukurov, A.Sabirdinov, adabiyotshunoslardan N.Shukurov, T.Matyoqubova kabi ko'plab olimlarning nozik kuzatishlari asosida tadqiq etilgan. To'g'ri, ba'zi tadqiqotlarning ayrim o'rinalarda tuzum va zamon bilan bog'liq mulohazalar ham aks etgan, lekin, asosan, shoir ijodiy laboratoriyasiga kirish orqali uning she'riyatiga xos bo'lgan badiiy-estetik va g'oyaviy jihatlar umumsoniy qadriyatlar mezonida tahlil etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

G'afur G'ulom XX asr o'zbek she'riyatining rivojiga hissa qo'shgan zabardast shoirlardan biridir. G'afur G'ulom lirkasi chuqur his-tuyg'ular va falsafiy mushohadalarga yo'g'rilgan, jonli tasvirlar bilan to'la yangilanishlarga yuz tutgan she'riyatdir. O'zbek adabiyotida o'ziga xos uslubi bilan keyingi davr adabiy avlodlari uchun fenomena aylangan ijodkor shaxsdir. Uning she'rlari ona vatanni, o'z xalqini ulug'laydigan, do'stlik va tinchlikni madh etuvchi falsafaiy mushohadalarga boy misralar bilan ifodalangan. Shoir falsafaiy fikrlari orqali shaxsning ichki dunyosigagina emas, balki jamiyat va davr muammolariga ham diqqat qaratadi. Jamiyatning o'zgarishi va inson huquqlari kabi mavzular uning asarlarida tez-tez ko'zga tashlanadigan falsafiy mavzulardir. Uning asarlaridagi falsafiy mushohadalar o'quvchini chuqur o'yashga, savollarga javob izlashga undaydi. G'afur G'ulom she'riyatiga xos bo'lgan bunday chuqur falsafiylik shoirning o'zi yashagan davri va jamiyati muhim muammolarini sezg'ir ravishda ifoda qilishga yordam beradi. Shoir asarlaridagi shakl va mazmun yangilanishlari uning uslubiy izlanishlari orqali an'anaviy mavzularni yangicha ruh bilan o'ziga xos uslubda ifodalashida namoyon bo'lgan.

Avvalo, shoirning she'rlaridagi g'oyaviy-estetik manbalar haqida so'z yuritganda, uning badiiy ijodi o'zbek folklori namunalari bilan oziqlanganligi g'ofurona uslubida namoyon bo'ladi. XX asrda Cho'pon, Usmon Nosir, Mirtemir kabilarning she'rlarida dutor, nay timsollari lirk qahramon tuyg'ulari ifodachisiga aylangan. G'afur G'ulom esa adabiy an'analarga yangi ruh bag'ishlab, qo'buz timsoli orqali o'z ovozini baralla taratgan:

Qardoshlarim, sizga yozgan ushbu salomni

Kuyga solib aytay desam o'z qo'buzim bor.

Qadimdan baxshilar xalq dostonlarini do'mbira, tor, dutor chertib, qo'buz tortib ijro etganlar. G'afur G'ulom ham ko'hna baxshichilik san'ati an'analarini mohirona uslubda she'rlari qatiga singdirgan. Oybekning quyidagi fikrlariga tayanib aytganda: "G'afur G'ulom obrazlar ustida ko'p ishlaydi. Fikr va tuyg'ularni tamomila yangicha berishga tirishadi". Shoir 1937-yillarda yozgan "Baxshining xotirasi" she'rin "O'sha keksa labda cho'pon qo'bizi" misrasi bilan boshlaydi va she'rnинг yakunlovchi bandida umr o'tkinchiligi, lekin baxshining qo'shiqlari mangu qanot qoqishini ifodalaydi:

Ey vohki, mangulik emasdир hayot...

Turushga tashna bu ko'zlar yumildi,

Bir tog'ning to'shida baxshi ko'mildi

Va lekin qo'shig'i qoqmoqda qanot...

Demak, G'afur G'ulom 37-yillarda yartgan bu she'rin keyinchalik o'zining hayotiy konsepsiyasiga aylantirgan va "o'z qo'bizi" orqali qo'shiqlarining keyingi davr avlodlariga ham yetib borishini bashorat qilgan.

G'afur G'ulomning lirk janrlar taraqqiyotida ham munosib o'rni bor. Shoirning 1923-yillardan boshlab to 1966-yillargacha bo'lgan lirk janrlarda yaratilgan asarlarini kuzatish asnosida aytish

ADABIYOTSHUNOSLIK

mumkinki, shoirning poetik mahorati ufqlari kengayib borganligi umuminsoniy g'oyalarni ifodalashida, ayniqsa, yaqqol aks etadi. Uning "Anor" she'rida vatanparvarlik, elparvarlik g'oyalari g'afurona mahorat bilan she'r misralariga singdirilgan. She'rning birinchi bandida shoir Namanganning anorini yer kurrasiga o'xshatadi:

Qo'limda Namanganning yer kurradek anori,
O'zbekiston bog'idan do'stlarimga bashorat.
Dona-dona totganda bosar dilning xumorin,
Tubandagi she'rimga bo'la olur ishorat.

G'afur G'ulom – manzara chizishning, tabiatdagi harakat, holat va ranglarni keng ifodalashning mohir ustasi. Uning teran nigohi tabiatdagi lahzalik o'zgarishlarni rassomona ziyraklik bilan ilg'ay oladi. Shoirning Namangan anorini yer kurrasiga qiyoslashida ana shunday teran nigoh sezildi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, G'afur G'ulom ijodidan adabiy ta'sirlanish keyingi adabiy avlod vakillari uchun ham xos xususiyatlardan bo'lgan. Masalan, Abdulla Oripovning "Qarshimda yer sharin surati turar, Salmog'i Quvaning anoricha bor" misralari G'afur G'ulomning Namangan anorini yer kurrasiga qiyoslashidan ijodiy ta'sirlanib yozilgan, deyish mumkin. G'afur G'ulomning yuqoridagi bandida Vatanni, xalqni ulug'lash g'oyalari ifodalangan. Ayniqsa, she'rning quyidagi bandida xalqimizga xos bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ulari inson konsepsiysi bilan uyg'unlikda ifodalangan:

Quyosh haroratidan bahramand bo'lgan inson
Quyoshday ijozatsiz har uya kira olur.
Kitob degani nurdir, har kitobdan ming jahon
Mehr-muhabbatimiz so'nmas yulduzday qolur.

Shoir ijodiy konsepsiyasini tekshirar ekanmiz, akademik S.Mamajonov ta'biri bilan aytganda, "G'afur G'ulom insonparvarlikni ijodining qalbi deb bilgan, o'ziga xos uslubga ega bo'lgan ijodkor edi".

G'afur G'ulom she'riyatida tinchliksevarlik g'oyalari ham yetakchi o'rinda bo'lgan. Shuning uchun mazkur she'rning lirik qahramoni ham tinchlik zamonini orzu qiladi. O'tmish bobolarimizga munosib voris bo'lishni, ular orzu qilgan hayotni kuylashni istaydi:

Koshkiydi xalqim uchun Hofiz g'azallaridek
Tinch-omonlik zamonning lirikasin yozolsam.
Koshkiydi bir nafas men bu xurshidiy xonamda
Ota-bobom boshlagan daftarin to'lg'azolsam.

G'afur G'ulom o'z yurti mustaqilligini ko'rishni oshkora ayta olmasa-da, uning misralarida yurt ozodligi qayg'usi yashiringan edi. Shuning uchun ham she'rning lirik qahramoni istiqlol tongini xalqi bilan birgalikda qarshilashni istaydi:

Koshkiydi Benavoyu Xalilullolalar bilan
Bir dasturxon ustida «mo'rcha miyon» choy ichsak,
Koshkiydi vido aytib jahoniy kulfat bilan
Istiqlol subhidamin birga-birga quchishsak.

Shoir ijodida inson konsepsiysi komillik sari intilayotgan lirik qahramon fikr-tuyg'ulariga monand yoritilan. Yana shuni ta'kidlash kerakki, bugungi globallashuv davrida yosh avlodda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda lirik qahramon kitobga, kutubxonaga ishora qilishi ham bejiz emas, albatta.

Jahon kutubxonasin varaq-varaq axtarib –
Oxiri topa oldim insoniyat mazmunin.
Saodat zaminida piyri badavlat qarib,
Kutmoqdaman, mo'tabar so'zingizning yakunin.

Xuddi shu kabi yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda "Endi urush bo'lmaydi" she'ri ham muhim ahamiyatga ega. Personajli lirikaga mansub ushbu she'nda ikkinchi jahon urushida qatnashib, urushdan qo'l-oyoqsiz qaytib kelgan Mirjalil akaning nutqi orqali o'quvchi ko'z o'ngida kitobxon shaxs gavdalanadi:

Miyig'ida iljayib
Bizlarga berdi javob:
Qo'l-barmog'im bor edi,

Varaqlar edim kitob.

Ona Vatanni ulug'lash shoir ijodiy konsepsiyasining javhari edi. Uning "Hamma yerdan sen go'zal" nomli she'rida lirik qahramon sayyohga aylanadi va ko'p go'zal, so'lim joylarni kezadi. Sayohati davomida "oddii qumi – zar" bo'lgan zaminlar, Hiro, Qarochi, Dehli kabi yurtlarning go'zalliklarini tavsiflaydi. She'rning oltinchi bandida Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlariga ishora qiladi:

Agrada uchratdim kishi aqlining
Takror bo'lmaydigan mo'jizasini,
Tojmahal yerida ko'rganday bo'ldim
Go'zal Andijonim andozasini.

Lirik qahramon Rim, Parij, Bolgonni kezadi va "ko'ra-ko'ra charchab", "hafsalasi sovigan" sayyoh, nihoyat Vataniga qaytadi. She'rdagi go'zal maskanlar suvrati shu qadar mahorat bilan hayotiy va jonli tarzda musavvirona chiziladiki, go'yo o'quvchi ham lirik qahramon bilan birga dunyo kezganday bo'ladi. Va lirik qahramon bilan birga Vatanga qaytganday tasavvur qiladi o'zini. She'rdagi vatanparvarlik g'oyalari kitobxon qalbiga, ongu shuuriga singib ketadi:

Hamma ko'rganimdan yaxlit xulosa:
Tuqqan Vatan ekan – jahonda go'zal!
O'z yurtim yerida ungan har maysa,
Begona yurtlarning gulidan afzal.

G'afur G'ulomning "Bizning uyga qo'nib o'ting, do'starim" she'ri milliy ruh bilan sug'orilgan, millatparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari tarannum etilgan lirik asardir. Mazkur she'r orqali shoir milliy xarakter yaratishga muvaffaq bo'lgan. Mehmondo'st millatning asl qiyofasini, o'zbek xalqi obrazini ifodalagan:

O'zbekiston yurtiga borgan chog'i,
Gurr ochilur qardoshlikning quchog'i,
Dilda qaynar ne'matlarning o'chog'i,
Asfalt yo'lda «Volga»ning to'pichog'i,
Avval bizga qo'nib o'ting, do'starim!

Shuningdek, she'rning "Do'star uchun darvozamiz lang ochiq, Boshingizga gul yaprog'idan sochiq", "Kelasiz deb jambil, rayhon o'tqazdim, Kim kelibdi dasta-dasta tutqazdim", "Joyni solib gulzorning o'tasiga, Parqu bolish, atlasdan ko'rpasiga" misralarida milliy siyratu-suvarat namoyon bo'lgan.

Milliy odatlarimizga xos saxiylik bilan yozilgan keng dasturxonga turli-tuman mevalar, milliy taomlarimizning tortilishi va uning atrofida yig'ilib, mushoiralar, kitobxonliklar o'tkazilishi kabi oniy lahzalar suvrati mohirlik bilan chizilgan. Qadimdan ota-bobolarimizning adabiyotga muhabbati, she'r zavqini tuyishi quyidagi satrlarda ifodalangan:

She'r o'qiylik Lutfiyidan, Navoiydan,
Bedil, Furqat, Pushkin ila Jomiyidan,
Keyin qolmay zamona ayyomidan,
Dil yorisin misralar ilohmidan,
Buning uyga qo'nib o'ting, do'starim!

Ko'rindaniki, shoir ijodida xalqimizga xos bo'lgan milliylik va uning g'oyaviy-badiiy talqinlari yuksak mahorat bilan ifodalangan.

XX asr boshlarida "ijtimoiylashgan she'riyatning ko'ngildan voqelikka yuz burishi, epik va dramatik tur bilan raqobat hamda o'zaro aloqa-ta'sir sharoiti lirik asarning subyektiv tashkillanishida o'zgarishlarga, lirik subyekt tushunchasining kengayishiga zamin bo'ldi. Endi she'nda "lirik men" qatori "o'zga"ning kechinma subyekti bo'lishi (ijroviy lirika, personajli lirika), kechinmani obyekt tasviri yoki tafsifida aks ettirish (tafsifiy lirika, voqeaband lirika) mumkin bo'ldiki, bu yangi she'riyatning tasvir va ifoda imkoniyatlarini kengaytirdi" [1, 56]. G'afur G'ulom ijodida ham ijroviy lirikaga mansub she'rlar yaraldi. Uning "Shoir Habibiy tilidan" sarlavhali she'ri ijroviy lirikaga mansub bo'lib, she'rning ijroviy qahramoni shoir Habibiydir.

Yoshligimda Xo'tanariq suvin kechdim,
Etigimni o'tdan-suvdan qo'rqlay yechdim,
Qo'shiq yozish hunarini ezib ichdim,

ADABIYOTSHUNOSLIK

Shul sababdan yetmish yoshga kirdim mano.

She’rda shoir Habibiy ohanglariga mos holda lirik kechinma yaratilgan. Ijroviy lirika bu “lirik kechinma o’zga shaxs tilidan ifoda etiluvchi she’r. Ya’ni, bunda shoir go’yo o’zga shaxsga evriladi, uning “rol”ini ijro qiladi”[2, 72]. G’.G’ulomning “O’zginam” she’ri otarchi-yallachi tilidan aytigan bo’lib, u ham ijroviy lirikaga mansubdir.

Shoir ijodida personajli lirikaga oid she’rlar ham yaralgan bo’lib, undagi meditatsiya o’z umrini sarhisob qilayotgan lirik personaj kechinmalari bilan uyg’unlashgan. She’rda “Ko’zlari ko’r bir padar o’z uyida Farog’at-la yastanib, muzika tinglamoqda // Qizi nozik barmoq-la Titratadi pardalar...”

Ba’zan avjlarda kezib,
Ba’zan tamoman tinib,
O’rtanib ingramoqda
Hijron simfoniyasi...
- Chal, qizim,
Shu yurakning butun hissiyotini,
Alam, iztirobini.
Qaytadan o’qib chiqay
Hayotim kitobini.

XX asrda barmoq vazni yetakchi bo’lgan bir vaqtda mumtoz adabiyotimiz an’analarini davom ettirgan shoir musammat turlaridan biri bo’lgan muxammas janri imkoniyatlardan foydalangan. Uning “Tun bilan tong” Alisher Navoiy g’azaliga muxammasi hamda “Qasidai shamsiya” Sobir Abdulla g’azaliga muxammasi janr rivojidagi asarlari sirasiga mansubdir. “Tun bilan tong” muxammasi quyidagi band bilan boshlanadi:

Mening qarog’imu oning jamoli tun bila tong,
Mening zavolimu oning kamoli tun bila tong,
Mening kuyuk mahim, oning hiloli tun bilan tong
Mening firoqimu oning visoli tun bila tong,
Bu nav’ dahrda yo’q ehtimoli tun bila tong.

Adabiyotshunoslikda o’zga shoir g’azaliga bog’langan muxammaslar taxmis deb yuritiladi. Taxmischi o’zga shoir g’azalining har bir baytiga o’zidan uch misra qo’shishi orqali uni ijodiy davom ettiradi. Taxmischi G’afur G’ulom muxammasi Alisher Navoiy g’azaliga xos bo’lgan janriy xususiyatlari: mujtassi musammani maxbuni maqsur (V – V – / V V – – / V – V – / V V ~) vazni, vazni, (a-a-a-a-a, b-b-b-b-a, v-v-v-v-a,...) qofiyasi, (tun bilan tong) radifiga mosdir. Xuddi shunday holatni Sobir Abdullaning g’azaliga bag’ishlangan “Qasidai shamsiya” muxammasida ham kuzatish mumkin. Demak, G’afur G’ulom she’rlarining vazn, qofiya, band qurilishi bilan bog’liq kompozitsion xususiyatlari shoir poetik g’oyalarini hamda asarning badiiy-estetik xususiyatlarini ifodalashda muhim funksiya bajargan.

G’afur G’ulomning “So’rang” radifli g’azali ham an’anaviy mumtoz lirik janrlarning XX asr she’riyatida yashovchanligini bildiradi. Ishq mavzusi kuylangan bu g’azal aruz she’r tizimining ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan:

Dildagi sevgi jilosini jamolidan so’rang,
Uydagi har ma’rifat nurin kamolidan so’rang.
V - - / V - - / - V - - / - V ~

Foilotun, foilotun, foilon

Lirik qahramon xalq lirikasidagi “bog” – oila timsolini o’z g’azalida vatan timsoliga ko’chirgan:

Bog’imizda yuz tuman rang oftob ko’zgusidek,
Bu chiroy mazmunini ruxsori olidan so’rang.

Yersizin yashnab ko’karmas bog’aro hech bir nihol,
Ona bag’ri lazzatin erka g’izolidan so’rang.

Shoir g’afurona uslubda mumtoz g’azal malohatini saqlab qolish uchun g’izol – ohu so’zini qo’llab, she’rning badiiy-estetik xususiyatini oshirishga erishgan. G’azalning oltinchi baytidagi

“Jambulu rayhon hidи ko’ngilni ko’klam qilgani” misrasida milliy odatlarimizga xos jihatlarni ifodalagan.

XULOSA

G’afur G’ulom lirik merosini o’rganish, she’riyatiga xos bo’lgan badiiy-estetik xususiyatlarni, umuminsoniy g’oyalari talqinini yoritish keyingi davr o’zbek she’riyatining rivojida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Qayumov A. (2008) Akademik G’afur G’ulom. – Toshkent: ART FLEX.
2. Nazarov B. (2004) G’afur G’ulom olami. – Toshkent.
3. Sabirdinov A. (2016) Ma’naviyat va ma’rifat chashmalari. – Toshkent: Akademnashr,
4. Ulug’bek Hamdam. (2012) Янги ўзбек шеърияти. – Ташкент: Adib, 304 b.
5. Quronov D. (2013) She’riyatimizdagi poetik yangilanishlarning bir qirrasiga doir ayrim qaydlar // Mutolaa va idrok mashqlari. – Toshkent, Akademnashr, B.192-213.
6. G’afur G’ulom. (1983) Mukammal asarlar to’plami. O’n ikki tomlik. Birinchi tom. She’rlar (1923-1940) – Toshkent: Fan.
7. G’afur G’ulom. (1984) Mukammal asarlar to’plami. O’n ikki tomlik. Uchinchi tom. She’rlar (1954-1966) – Toshkent: Fan.